

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makonining ijtimoiy-siyosiy kontseptual asoslari 235

A.A.Salmonov

Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy-siyosiy omillari 240

B.X.Tolipov

Yangi O'zbekistonda yoshlar iqtisodiy faolligini sog'lom raqobat madaniyati
asosida rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari 245

F.A.Mirzayeva

Zamonaviy tariqatchilikdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida
"Maktubot" asarining ahamiyati 249

I.M.Arzimatova

Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari 254

I.A.Asatulloev

Siyosiy ta'sirni amalga oshirish vositalari va mexanizmlari 260

O.M.Karimov

Majburiy mehnatga qarshi kurashda xorij tajribasi: muammo va yechimlar 266

Q.Sulaymonov

Siyosiy madaniyatning milliy-madaniy negizlari va o'ziga xos xususiyatlari 269

A.A.So'fiev

Tadbirkor shaxs huquqiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy zarurati 273

M.R.Sodiqova

O'zbekiston ipakchilik sanoatida xalqaro hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy
ahamiyati (2000-2021-yillar) 278

S.A.Soxibov

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri: O'zbekiston va global kontekstda oqibatlar tahlili 282

Q.A.Pulatov

Sotsial transformatsiya sifatida tizimli jarayon: falsafiy va tarmoqlararo tahlil 286

D.E.Normatova

Qadimgi Xitoyda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy qarashlar 290

O.M.O'sarkulov

O'zbekistondagi koreys diasporasi milliy identikligining asosiy ko'rinishlari 294

G.I.Hashimova

Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy,
siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida 299

I.A.Rakhimov

Problems with performance indicators (KPI) set by mahalla chairmen
when evaluating the performance of the "Mahalla seven" 304

S.P.Tojiboyev

Davlat boshqaruvida korrupsiogen xatti-harakatlarning psixosotsial ildizlari 308

TARIX**F.M.Rahmonberdiyev**

XX asr 20 – 50-yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining B.Ahmedov hayotida aks etishi 313

F.M.Rahmonberdiyev

Tarixshunoslikda akademik Bo'riboy Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatini
davrlashtirish masalalari: yangi talqinlar 321

E.A.Botirov

Bir olimning izlari: L.M. Landa shaxsiy fondi sahifalariga nigo 328

O.A.Radjabov

Tojikiston temiryo'l tashkiloti va uning faoliyati tarixi 332

S.B.Mamataliyeva

Turkistonning islomgacha bo'lgan davrdagi shishalari tarixi 336

S.I.Yoqubjonov

O'zbekiston hunarmandchiligi: rivojlanishi va xalqaro maydonda bugungi o'rni 342

D.A.Qosimov

Turkiston o'lkasida Farg'ona viloyati pochta-telegraf tizimining tarixiy



UO'K: 94(575.1):930.85(091)

TARIXSHUNOSLIKDA AKADEMIK BO'RIBOY AHMEDOV HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATINI DAVRLASHTIRISH MASALALARI: YANGI TALQINLAR**ISSUES OF PERIODIZATION OF ACADEMICIAN BO'RIBOY AHMEDOV'S LIFE AND SCHOLARLY ACTIVITY IN HISTORIOGRAPHY: NEW INTERPRETATIONS****ПРОБЛЕМЫ ПЕРИОДИЗАЦИИ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКАДЕМИКА БУРИБОЯ АХМЕДОВА В ИСТОРИОГРАФИИ: НОВЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ**

Rahmonberdiyev Feruz Mahmudjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada mashhur manbashunos va sharqshunos olim, mintaqamizda temurshunoslik sohasining rivojida muhim o'rin egallagan akademik Bo'riboy Ahmedovning hayoti va ilmiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlil qilinadi. Unda olimning ilmiy faoliyat yo'nalishlari, ularning shakllanish bosqichlari hamda tarixshunoslikdagi o'rni aniqlashga harakat qilingan.

Abstract

The article analyzes research dedicated to the life and scholarly activity of the prominent source scholar and orientalist, Academician Buriboy Akhmedov, who played a significant role in the development of Temurid studies in the region. The study seeks to identify the main directions and stages of the scholar's academic work, as well as his place within historiography.

Аннотация

В статье анализируются исследования, посвящённые жизни и научной деятельности известного источниковеда и востоковеда, академика Бурибоя Ахмедова, сыгравшего значительную роль в развитии темуридоведения в регионе. В работе предпринята попытка определить основные направления и этапы научной деятельности учёного, а также его место в историографии.

Kalit so'zlar: akademik Bo'riboy Ahmedov, tarixshunoslik, manbashunoslik, sharqshunoslik, temurshunoslik, ilmiy maktab, davrlashtirish, ilmiy meros, metodologik yondashuv.

Key words: Academician Buriboy Akhmedov, historiography, source studies, oriental studies, Temurid studies, scientific school, periodization, scholarly legacy, methodological approach.

Ключевые слова: академик Бурибой Ахмедов, историография, источниковедение, востоковедение, темуридоведение, научная школа, периодизация, научное наследие, методологический подход.

KIRISH

O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan akademik Bo'riboy Ahmedovning asarlari va ilmiy g'oyalari XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragidagi aksar ilmiy izlanishlarida asos sifatida qo'llangan bo'lsa-da, hayoti va ilmiy faoliyati hozirga qadar tizimli ravishda maxsus tadqiq etilmagan.

Bugunga qadar Bo'riboy Ahmedovning ilmiy merosi va faoliyatiga bag'ishlangan kompleks, tizimli tadqiqot yaratilmagan bo'lsa-da, uning asarlaridan foydalanilgan maqolalar, monografiyalar va ilmiy ishlar olimning ilmiy faoliyati qisman o'rganilganini va u tarixshunoslikda o'ziga xos ilmiy maktab yaratganini yaqqol ko'rsatadi. Shu sababli akademik B.Ahmedovning ilmiy merosini chuqur tahlil etish, uning metodologik yondashuvlari, manbalar bilan ishlash tamoyillari hamda tarixiy konsepsiyalarini ilmiy jihatdan o'rganish bugungi tarixshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuga oid ishlarni ularning mazmun-mohiyatiga ko'ra ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunda birinchi guruhga B.Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risida yozilgan maqolalar hamda esdaliklar, ikkinchi guruhga esa olimning ilmiy merosidan keng foydalanilgan holda yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari kiradi. Shuningdek, ularni an'anaviy uslubda davriy-hududiy jihatdan uch: sovet davri, mustaqillik yillarida hamda xorijda yaratilgan tadqiqotlar sifatida guruhlash mumkin.

Birinchi guruhdagi ishlar asosan olimning shaxsiy fazilatlari, mehnat va ilmiy ijodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari xususida umumiy ma'lumot beradi. Ular hajman cheklangan va aksar hollarda publitistik uslubda bo'lsa-da, B.Ahmedov zamondoshlari, shu jumladan, olim bilan bevosita aloqada bo'lgan hamkasblari va shogirdlari tomonidan yozilgan bilan muhim manba sifatida ahamiyatlidir. Bu borada, sovet davrida yaratilgan A.Ishanov, A.Muhammadjonov, Y.Soliyev, O.Borisov, A.Madrahimov, M.Ali, M.Bobohojayev va M.Yunushojayeva, D.Yusupova, H.Ziyoyev ishlari [1] alohida o'rin tutadi. Ularda B.Ahmedovning hayoti va Ikkinchi jahon urushi yillaridagi zahmatlari, manbashunos va sharqshunos bo'lib etishish jarayoni yoritilib, olimning XX asrning 60 – 80-yillarida chop etilgan ilmiy asarlari qisqa tarzda tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida akademik B.Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatiga doir bir qator ishlar e'lon qilindi. K.Norqulov, A.Samad, K.Normatov, T.Hojamberdiyev, M.Ali, S.Jo'rayev, D.Yusupova maqolalari va boshqa ishlarda [2] B.Ahmedov mehnat va ilmiy faoliyatining asosiy jihatlarini umumiy tahlil etilgan. So'nggi yillarda yaratilgan mavzuga oid ishlar ichida H.To'rayev va S.Rajabov, Sh.Qo'ldoshev maqolalarida B.Ahmedov ilmiy ishlari sohalar kesimida maxsus tahlil qilinganligi bilan e'tiborga loyiqdir. Misol uchun, H.To'rayev va S.Rajabov maqolalarida [3] B.Ahmedov asarlarining zamonaviy tarixshunoslik va manbashunoslikda tutgan o'rni ochib berilgan. Sh.Qo'ldoshev maqolasida olimning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki, ta'lim olish jarayonlari va ilmiy faoliyati, kadr tayyorlashga qo'shgan hissasi qisqa tarzda bayon [4] etilgan. Bundan tashqari, muallif B.Ahmedovning ilmiy tadqiqot yo'nalishini uch guruhga ajratish lozimligini ta'kidlaydi. Ammo, sohadagi tadqiqotlar B.Ahmedovning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini, shug'ullanish xronologiyasidan kelib chiqib, 5 ta yo'nalishga ajratish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda.

Birinchi guruhga kiruvchi adabiyotlar ichida B.Ahmedov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan tayyorlangan "Ziyobaxsh umr" nomli ilmiy publitsistik maqolalar to'plami [5] ham muhim o'ringa ega. Unda olimning zamondoshlari, do'stlari va shogirdlarining B.Ahmedov hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan esdalik xotiralari jamlangan. Jumladan, to'plamdan A.Asqarov, D.Yusupova, N.Ibrohimov, A.Ziyo, A.Sagdu'llayev, S.G'ulomov, S.G'ulomov, H.Davron, A.Mannonov, M.Hasaniy, Q.Sodiqov, H.To'rayev, R.Hodjayeva, N.Abduazizova, B.Omonov, A.Madramov, K.Kattayev, H.Karomatov, H.Sattoriy, Sh.Xalilova, J.Ergashev kabi yurtimizning yetakchi olimlari, shuningdek J.Tulibayeva va T.Tulibayev kabi xorijiy mutaxassislarning B.Ahmedovning shaxsiy fazilatlari, O'zbekiston va Markaziy Osiyoda tarixi, fani, shu jumladan, etnik tarix, tarixshunoslik va manbashunoslik hamda temurshunoslik sohalarining rivojiga qo'shgan hissasi borasidagi fikr-mulohazalari [5: 59-242] o'rin olgan. Qayd etish joizki, to'plam mualliflari B.Ahmedov hayoti va faoliyatining barcha jihatlarini qamrab olishga harakat qilishgan. Misol uchun, unda B.Ahmedovning yoshlik yillari, maktab va oliy ta'lim olish jarayonlari, harbiy xizmat voqealari, aspirantura va doktorantura, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va xalqaro Amir Temur jamg'armasidagi faoliyati ommabop tarzda bayon qilingan. Bundan tashqari, to'plamga Bo'riboy Ahmedovning ilmiy-ommabop va publitsistik maqolalari hamda suhbatlari, olimning hayot yo'li haqidagi fotosuratlar, shuningdek, ilmiy ishlari to'liq bibliografik ko'rsatkichi kiritilganligi uning qiymatini oshirgan. Ammo to'plam publitsistik ruhda ekanligi sabab, unda olimning faoliyatiga oid asosiy manba hisoblanuvchi shaxsiy arxiv hujjatlardan foydalanilmaganligi natijasida olimning faoliyat bosqichlari xronologiyasida ayrim chalkashlik va noaniqliklarga yo'l qo'yilgan. Bundan tashqari, to'plamning turli nomlar bilan atalgan bo'limlaridagi ma'lumotlar bir-biriga o'xshash bo'lib, tavgologik takrorlanishlar iborat. Shuningdek, olimning ilmiy ishlari bibliografik ko'rsatkichida hammualliflikdagi ishlar ham yakka-mualliflikda ko'rsatilib, bevosita B.Ahmedov muallifligida bo'lmagan muharirlik ishlari ham olimning shaxsiy ilmiy ishlari qatoriga kiritib yuborilgan.

Birinchi guruhga kirgan xorijiy ishlar ichida 2024-yil 30-mayda Bo'riboy Ahmedov tavalludiga 100 yil to'lishi munosabati bilan Bishkek shahridagi Qirg'iz milliy universitetida o'tkazilgan xalqaro simpozium materiallari [6] muhim o'ringa ega. Simpoziumning birinchi – maxsus seksiyasi Bo'riboy Ahmedovning shaxsiyati, ilmiy va ijodiy hayotiga bag'ishlandi va unda asosan olimning qirg'izistonlik va qozog'istonlik shogirdlari o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi. Ulardan: M.K.Abuseitovning "Akademik Bo'ri Ahmedovich Ahmedov va Qozog'iston sharqshunosligi" [6: 35-43], T.Choroyevning "Ustozim akademik B.Ahmedovni hayotini o'rganishda yangi omillar va uning qirg'izshunoslikka qo'shgan hissasi haqida" [6: 49-54], T.Mashrapovning "Buyuk ustoz to'g'risida so'z" [6: 68-71] mavzusidagi maqolalari ilmiy jihatdan olim faoliyatining yurtimizda kam e'tibor qaratilgan jihatlariga bag'ishlanganligi bilan ham ahamiyatlidir. Mazkur to'plam Bo'riboy Ahmedov ilmiy merosining ko'p

TARIX

qirrali ekanligini, uning O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston tarixshunoslik maktablari bilan uzviy bog'liqligini hamda Markaziy Osiyo xalqlari tarixini bir butun ilmiy jarayon sifatida tadqiq etishdagi xizmatlarini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi tadqiqotlarni B.Ahmedov ilmiy ishlarining asosiy yo'nalishlari kesimida tasniflash maqsadga muvofiq bo'lib, ularni mohiyatan umumlashtirgan holda xronologik jihatdan quyidagi yo'nalishlar kesimida tahlil etish lozim:

birinchi yo'nalishi olim o'z faoliyatining dastlabki yillaridayoq e'tibor qaratgan o'zbek xalqining shakllanishi va etnik tarixi masalalariga bag'ishlangan ishlarini [7] qamragan bo'lib, B.Ahmedov bu sohada o'z faoliyatining dastlabki yillaridanoq ilmiy izlanishlar olib borgan. Umumiy hisobda yigirmaga yaqin ishlarida olim mazkur mavzuga chuqur ilmiy tahlil bilan yondashib, o'zbek xalqining shakllanishi qadimiy davrlarga borib taqalishi, Shayboniy o'zbeklari esa Movarounnahrda kirib kelgach, mahalliy turkiy xalqqa o'z nomini berganligini o'rta asr manbalariga tayangan holda asoslashga harakat qildi. Sovet davrida olimning ayni yo'nalishdagi ishlari dastlab V.P.Yudin [8] va A.I.Ishanov [9] tomonidan maxsus o'rganilgan. Keyinchalik olimning sohaga doir ishlari M.Ermatov, B.Karmisheva, A.Asqarov, V.Nikonov, X.Salimov, B.Litviniskiy, G'.Abdurahmonov va L.Shukurovlar [10] tomonidan tahlilga tortilgan.

Mustaqillik yillarida B.Ahmedovning bu boradagi qarashlari sohaning yirik mutaxassisi K.Shoniyozov tomonidan maxsus tahlil qildi. Jumladan, sharqshunos olimning "o'zbek xalqi Qoraxoniylar davrida to'la shakllangan" deb bergan xulosasi, etnolog tarafidan ma'qullanib, o'zbek xalqining alohida etnik birlik (elat) bo'lib shakllangan vaqtining nihoyasiga etganligini XI – XII asrlar o'rtasi bilan belgilanganda masalaga yana ham aniqroq yondashilgan bo'lishi [11: 29-30] ko'rsatib o'tilgan.

B.Ahmedov "o'zbek" atamasini shakllanishiga oid xulosalarini tahlil qilib, ularni to'g'ri ekanligini akademik A.Asqarov [12: 46] hamda manbashunos Sh.Kamoliddinlar [13: 62-65] ham alohida qayd etishgan.

B.Ahmedovning o'zbek xalqining birinchi va asosiy komponentini sak-massagetlar, so'g'diylar, xorazmiylar, chochliklar, parkonaliklar va boxtarlar tashkil etganligiga [14] oid xulosalari soha mutaxassislari fikricha, S.Tolstovning qarashlariga asoslangan va u o'z vaqtida ilmiy doirada turli munozaralarga sabab bo'lgan. Jumladan, K.Shoniyozov bu maqolaga doir mulohazasida "turk" va "turkiy" xalq atamalarini izohlab bergan [15].

So'nggi yillarda V.Abirov tomonidan olimning o'zbek xalqining shakllanish tarixiga bag'ishlangan ishlari maxsus o'rganilib [15], olimning ayni masala yuzasidan ilgari surgan xulosalari tanqidiy tahlil qilingan. Tadqiqotchi fikricha, B.Ahmedov o'zbek xalqi shakllanishi borasida sovet olimlari qarashlarini o'rinli hisoblagan [15: 217]. Biroq ayni o'rinda qayd etish zarurki, B.Ahmedovning ushbu sohadagi tadqiqotlari o'zbek xalqining shakllanishi borasida fanda mavjud turli qarashlarning yakdil echimini belgilab bermagan bo'lmasa-da, "o'zbek" atamasini shakllanishi yuzasidan kuchli manbaviy asosga ega yakuniy xulosalar qayd etilgani hamda ularda sohadagi tadqiq talab birlamchi manbalar va mavzularga doir zaruriy ko'rsatmalar berilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchi yo'nalishga olimning mohiyatan bir biriga yaqin bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlarining X – XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi, shu jumladan ayni davr manbashunosligi hamda temurshunoslik sohasidagi ishlari tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada sovet davrida olib borilgan M.Salahiddinova, V.Romodina, O.Chexovich, O.Frolova, O.Akimushkin, M.Abuseitova tadqiqotlarida [16] B.Ahmedovning ijtimoiy-siyosiy tarix va manbashunoslikka doir asarlari tahlil etilgan.

Mustaqillik yillarida e'lon qilingan tadqiqotlar ichida A.Ahmedov, T.Fayziyev, N.Norqulov, U.Uvatov, O.Bo'riyev, A.Ziyo, D.Obidjonova, D.Yusupova, B.Usmonov, F.Shamukaramova, X.Fayziyev, E.V.Rtveladze, D.Alimova, Sh.O'ljayeva, M.Hamidova, T.Mahmudov, M.Buzrukov, S.Ahmedov, L.Begimqulova, O.Abdunosirova, N.Isroilov tadqiqotlarida [17] B.Ahmedovning temurshunoslik va manbashunoslikka oid asarlari tahlilga tortilgan. Ulardan zamonamizning yirik temirshunos olimi B.Usmonov tomonidan B.Ahmedov asarlarida keltirilgan ayrim ma'lumotlar tanqidiy tahlil etilgan. Jumladan, B.Ahmedovning "Temur va Qamariddin" [18] nomli risolasini tahlil qilish chog'ida asarda keltirilgan Iskandar Mirzo boshchiligidagi Temuriylar qo'shinini Xo'tandan to Xonbaliqqacha bo'lgan yerlarni bosganligi va qishni Xo'tanda o'tkazganligi haqidagi muallif fikri haqiqatdan yiroq ekanligi ta'kidlanib, manbalarda Xonbaliqqacha yurish qilingani haqida qayd

uchramasligi, manbalarda Iskandar mirzo qishni Qoshg'arda o'tkazgani yozilganligi qayd etiladi. Yana bir o'rinda Amir Qamariddinni Farg'onaga uyushtirgan bosqini vaqtini ko'rsatishda ham B.Ahmedov chalkashlikka yo'l qo'yganligi ta'kidlanib, ayni voqelik 1376-yilning yozida bo'lib o'tganligi aytiladi.

Yuqoridagilardan tashqari, H.To'rayev, G.Agzamova, G.Sultonova, A.Zamonov, B.Mirzayev, A.Nishonov, S.Rajabov, J.Ergashev tadqiqotlarida [19] B.Ahmedovning XVI – XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini va ayni davrning manbashunosligiga bag'ishlangan asarlari qisqa kontekstda o'rganilgan.

Ikkinchi yo'nalishga taalluqli tadqiqotlar ichida xorijiy mualliflar asarlari ham alohida ahamiyatga ega. Bu borada M.Abuseitova, G.Tursunova, A.Saidov, H.Kamol, T.Velsford, S.Xoseynisheroziy, F.Saidov, A.Umarov va M.Hodjayev tadqiqotlarida [20] B.Ahmedovning sohadagi ishlari maxsus o'rganilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekistonda tarixshunoslik va manbashunoslik sohalarining rivojida muhim o'rin egallagan akademik Bo'riboy Ahmedov (1924 – 2002) o'zining hayotiy faoliyati davomida uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Uning bolalik yillari Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixida sovet hokimiyatining “Yangi iqtisodiy siyosat” (1921 – 1928) va “Yer-suv islohoti” (1921 – 1929) deb nom olgan jarayonlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, o'smirlik yillari Ikkinchi Jahon urushi (1939 – 1945) davrida, bevosita frontda kechdi. Yoshlik davri esa urushdan keyingi og'ir iqtisodiy sharoitda o'tdi. Ayni jihatlar B.Ahmedovni ilm olamiga o'z tengqurlaridan biroz kech, jumladan, 1961-yilda kirishiga sabab bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, bolalik davridan o'g'ir mehnatda toblangan kuchli iroda va sabr uning olimlik yillarida samarali ilmiy ijod qilishining bosh omiliga aylandi.

Mavzuga oid birlamchi manbalar hisoblangan arxiv hujjatlari, yozma va video tasvirlarda saqlangan olim xotiralari hamda asarlarining tahlili asosida B.Ahmedov hayoti va faoliyatini quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish lozim:

1924 – 1953-yillar – bolalik va yoshlik yillarini o'z ichiga olgan mazkur bosqichda avval o'rta, so'ngra oliy maktabni bitirgan B.Ahmedov mustaqil shaxs sifatida voyaga etdi. Uning mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik va kamtarlik kabi xarakter xususiyatlari ayni bosqichda to'liq shakllandi. Bunda yuqorida ta'kidlanganidek XX asrning 20 – 40-yillaridagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy turmush va Ikkinchi Jahon urushidagi ishtirok muhim ahamiyat kasb etdi.

1953 – 1974-yillar – tarixchi olim sifatida shakllanish davri hisoblangan ayni bosqich B.Ahmedovning aspirantlik yillaridan to tarix fanlari doktori darajasini olishiga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda ilmiy tadqiqot yo'nalishining qamrovi juda keng bo'lib, olim o'zbek xalqining kelib chiqishi masalalaridan tortib, jahon mamlakatlari, shu jumladan, Lotin Amerikasi, AQSH va Afrika xalqlari tarixiga oid ilmiy izlanishlar olib borgan.

1974 – 1991-yillar – yirik tarixshunos va manbashunos sifatida Markaziy Osiyoning X – XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga oid muhim ilmiy tadqiqotlar olib borib, bir qancha fundamental asarlar nashr qilgan ushbu bosqichda olim fan arbobi darajasiga erishdi.

1991 – 2002-yillar -olim o'z ilmiy faoliyatidagi asosiy e'tiborni Amir Temur va Temuriylar tarixiga qaratgan mazkur bosqichda temurshunoslikning Bo'riboy Ahmedov maktabi shakllandi. Olimning ayni sohadagi tadqiqotlari hamda tashkilotchilik borasidagi ishlari mahalliy va xalqaro doirada yuksak e'tirofga sazovor bo'lib, Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zosi, bir qancha yirik xorijiy universitet va ilmiy tadqiqot muassasalarining faxriy professorligiga tayinlandi.

Bugungi kunga qadar e'lon qilingan mavzuga oid ishlarda B.Ahmedovning ilmiy faoliyati to'rt yo'nalishga ajratiladi. Bular: o'zbek xalqining etnik tarixi; Markaziy Osiyoning X – XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi; manbashunoslik; Amir Temur va Temuriylar tarixi yo'nalishlaridir. Birinchi bobdagi tahlillardan ayon bo'lganidek, B.Ahmedovning ilmiy tadqiqot yo'nalishi keng qamrovli bo'lib, u nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo va hatto jahon mamlakatlari tarixi masalalari doirasida ham ilmiy izlanishlar olib borgan. Shunga asosan B.Ahmedovning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini, shug'ullanish xronologiyasidan kelib chiqib, quyidagi **5 ta yo'nalishga** ajratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Birinchi yo'nalishi o'zbek xalqining shakllanishi va etnik tarixi masalalarini qamragan bo'lib, bu sohada olim o'z faoliyatining dastlabki yillaridanoq ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, o'zining 1961-yil 16-martida Leningrad davlat universiteti Sharq fakulteti ilmiy kengashida himoya qilgan “Государство кочевых узбеков во времена Абу-л-Хайрихана” (“Abulxayrxon davridagi ko'chmanchi o'zbeklar davlati”) mavzusidagi tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasida, shuningdek,

TARIX

keyingi yillarda e'lon qilgan yigirmaga yaqin ilmiy ishlarida mazkur mavzuga chuqur ilmiy tahlil bilan yondashib, o'zbek xalqining shakllanishi qadimiy davrlarga borib taqalishi, Shayboniy o'zbeklari esa Movarounnahrda kirib kelgach, mahalliy turkiy xalqqa o'z nomini berganligini o'rta asr manbalariga tayangan holda asoslashga harakat qildi.

Ikkinchi yo'nalishi jahon mamlakatlari tarixi masalalari. Olim bu yo'nalishda o'z faoliyatining dastlabki yillarida, aniqrog'i 1963 – 1970-yillar oralig'ida ilmiy izlanishlar olib borib, AQSh, Lotin Amerikasi, Afrika, Kongo, Yevropa xavfsizligiga oid bir qancha monografiya, risola va maqolalar e'lon qilgan. Olimning ayni yo'nalishdagi ishlariga mazkur davrda milliy tarixni tadqiq etishga qo'yilgan turli mafkuraviy cheklovlar sabab bo'lgan.

Uchinchi yo'nalishi Markaziy Osiyo xalqlarining X – XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga oid ilmiy tadqiqot natijalarni o'z ichiga oladi. Ayni yo'nalish olimning XX asr 70-yillarining o'rtalaridagi ilmiy faoliyatiga taalluqli bo'lib, ayni yo'nalishdagi yirik ishlardan biri, uning tarix fanlari doktori darajasini olish uchun tayyorlangan “Балхское ханство в XVI – первой половине XVIII вв.” (“XVI – XVIII asr birinchi yarmida Balx xonligi”) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi va uning asosida e'lon qilingan “Балхское ханство” (“Balx xonligi”) nomli monografiyasi bo'ldi.

To'rtinchi yo'nalish manbashunoslik sohasi bo'lib, bu borada olim tomonidan bir qancha nodir asarlar nashrga tayyorlandi. Bundan tashqari, O'zbekiston tarixiga oid manbalar jamlanib, ularning tavsifiga oid ishlar e'lon qilindi. Jumladan, ikki jildlik “Abdullanoma”, “Bahr ul-asror”, “Nasihat ul-muluk”, “Siyosatnoma”, “Samariya”, “Shoirilar bo'stoni” va “Tarixi arb'a ulus” kabi asarlarning tarjima nashrlari, shuningdek, “Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв.”, “Материалы по истории Средней и Центральной Азии X – XIX вв.”, “O'zbekiston tarixi manbalari” singari asarlari manbashunoslik sohasida muhim ahamiyatga ega.

Beshinchi yo'nalish olim tomonidan Amir Temur va Temuriylar tarixiga doir e'lon qilingan ishlarni jamlaydi. B.Ahmedov o'zining ayni davr tarixiga oid asosiy ilmiy ishlarini 1991-yildan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, o'zbek davlatchiligining asoschilaridan biri sifatida Amir Temur faoliyatiga katta e'tibor qaratilgan vaqtda e'lon qildi. Biroq shuni ham aytish kerakki, B.Ahmedov temurshunoslik tadqiqotlarni XX asrning 60-yillaridanoq boshlagan. Mafkuraviy tazyiqlarga qaramasdan ayni davrda Mirzo Ulug'bek (1394 – 1449), Davlatshoh Samarqandiy (tax. 1436 – 1491), Xondamir (tax. 1475 – 1535) hayoti va ijodiga oid o'nga yaqin risola va maqolalar e'lon qilgan edi.

XULOSA

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, akademik B.Ahmedovning ilmiy tadqiqot yo'nalishi keng qamrovli bo'lishi bilan bir qatorda asosan sharqshunoslik va manbashunoslik sohalari qamrovida bo'lgan. Olim tadqiqotlarida asosiy masalalar hisoblangan o'zbek xalqining shakllanishi, mintaqaning XIX asrgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tarixi hamda temurshunoslik borasidagi ilmiy izlanishlarda avvalo ayni mavzularga oid birlamchi manbalar tahliliga tayanilgan. Umumiy hisobda olim tomonidan 1960 – 2022-yillar oralig'ida jami 363 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Ularning 54 tasi monografiya, 42 tasi mas'ul muharrir va tarjimon sifatida nashr qilingan asarlar, 140 dan ortig'i 14-jildlik O'zbek sovet ensiklopediyasi hamda O'zbekiston milliy ensiklopediyasining 1 – 2-jildi uchun yozilgan maqolalar, shuningdek, 120 dan ortig'i esa olimning asosiy tadqiqot yo'nalishiga oid ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalardan iborat. Mazkur ishlarning bir nechalari London, Dehli, Moskva, Sankt-Peterburg, Tbilisi, Ashxobod, Olma-Ota, Qobul, Visbaden (Germaniya) kabi shaharlarda chop etilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ишанов А.И. Книга по истории кочевых узбеков: [о монографии Б.Ахмедова] // Общественные науки в Узбекистане, 1966. – № 11. – С. 41–42; Мухаммаджанов А. Бебаҳо хазина // “Шарқ юлдузи” адабий-бадий, илмий, ижтимоий-сиёсий журнали, 1968. – № 99. – Б. 59–62; Солиев Ю. Тарчимон Тазкирай Давлатшоҳ // Комсомоли Тоҷикистон, 1968. – 4 август. – Б. 4; Борисов О.М. Асрларни жонлантирган китоб // “Шарқ юлдузи” адабий-бадий, илмий, ижтимоий-сиёсий журнали, 1978. – № 8. – Б. 3; Мадрахимов А. Шарқшунос олим // Гулистон, 1986. – № 6. – Б. 4; Али М. Ажойиб ҳодиса // Ёш ленинчи, 1989. – 15 август. – Б. 4; Бабаходжаев М., Юнусходжаева М. Жизнь, посвященная науке // Сельская правда, 1989. – 13 сентябрь. – С. 4; Юсупова Д. О прошлом с пользой для настоящего // Правда Востока, 1989. – 13 сентябрь. – С. 2; Зияев Ҳ. Манбашунос // Ўқитувчи газетаси, 1990. – 4 июль. – Б. 4.

2. Норкулов Н. Манбашунослигимиз дарғаси: Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, ЎзФА мухбир аъзоси Бўрибой Аҳмедов ҳақида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1994. – 30 сентябрь; Самад А. Олимнинг изтироблари ва қувончлари. – Тошкент: Камалак, 1995. – 74 б.; Норматов К. Ўтмиш ва келажак кўзгуси // Ўзбекистон овози, 1999. – 26 август. – Б. 3; Хўжамбердиев Т. Қорасувдан чиққан академик // Қорасув тонги, 1999. – 12 август. – Б. 2; Норматов К. Ўтмиш ва келажак кўзгуси (2-қисм) // Маърифат, 2004. – 7 сентябрь. – Б. 4 – 5; Али М.

Забардаст олим // Халқ сўзи, 2005. – 30 апрель; Ўша муаллиф. Ўзбекистон Фанлар академияси академиги Бўрибой Аҳмедов // Халқ сўзи, 2005. – 30 апрель; Jo'rayev S. va boshqalar. Bo'riboy Ahmedovning "O'zbekiston tarixi manbalari" asari asosida Amir Temur va temuriylar davriga oid manba va adabiyotlarni o'rganish // «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2005. – B. 220–226.; Юсупова Д. Академик Бўрибой Аҳмедов хотирасига // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 2005. – № 1-2. – Б. 87–89.; Аҳмедов Бўрибой // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т. 1. А-Бешбалиқ / таҳрир ҳайъати: М.Аминов. – Тошкент, 2000. – Б. 560.; Академик Бўрибой Аҳмедов: некролог // Халқ сўзи, 2002. – 16 май.

3. Тўраев Ҳ., Ражабов С. Тарих илмининг дарғаси. // International scientific and practical conference "The time of scientific progress". – Warsaw, 2022. – Б. 98.; Ражабов С.С. Источники по истории Бухары в исследовании академика Б.Ахмедова // Проблемы востоковедения, 2024. – № 1. – С. 39–44.

4. Кулдашев Ш.Т. Некоторые сведения о жизни и творчестве Бурибая Ахмедова. // Славяно-тюркский мир на пространстве большого Алтая: история и современность. Материалы международного экспертного форума. – Барнаул: Издательство Алтайского государственного университета, 2024. – С. 149–155.

5. Самад А., Аҳмад М. Бўрибой Аҳмедов: зийбаҳш умр. – Тошкент: Oltin meros press, 2024. – 548 б.

6. Материалы Международного симпозиума, посвященного 100-летию со дня рождения Борыбая Ахмедова. – Бишкек: Кыргызский национальный университет, 2024. – 159 с.

7. Аҳмедов Б. Ўзбекларнинг келиб чиқиш тарихидан. – Тошкент: ЎзФА нашр., 1962.; O'sha muallif. Ўзбекларнинг келиб чиқиш тарихидан. – Тошкент, 1963. – 64 б.; O'sha muallif. Государство кочевых узбеков. – Москва: Наука, 1965. – С. 14.; O'sha muallif. О роли письменных источников в изучении этногенеза узбекского народа. // Общественные науки в Узбекистане. – 1981. – № 12. – С. 44–50.; O'sha muallif. Тарихий манбалар тилга кирганда: ўзбек халқининг шаклланишига оид тарихий асарлар. // Шарқ юлдузи. 1981. – № 5. – Б. 234.; O'sha muallif. Взаимоотношения оседлого населения Мавераннахра с жителями кочевых степей XVI в. // Вопросы советской тюркологии: Материалы IV Всесоюзной тюркологической конференции. 10–12 сентября 1985 г. – Ашхабад, 1985. – С. 145–156.; O'sha muallif. Значение письменных источников в изучении этнической истории Средней Азии и Казахстана. // Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана. – Ташкент, 1986. – С. 28–29.; O'sha muallif. Ўзбеклар: уларни келиб чиқиш тарихи. // Мулоқот, 1991. – № 1. – Б. 55–60. Давоми: № 2. – Б. 51–55.; O'sha muallif. Ўзбек қавмлари. // Сирли олам, 1992. – № 2. – Б. 24–32.; Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси, 1992. – 152 б.

8. Юдин В.П. Рецензия на кн.: Б. А. Ахмедов. Государство кочевых узбеков. – Москва, 1965. // Известия АН КазССР. Серия общественная. – Алма-Ата, 1966. – № 2. – 86 с.

9. Ишанов А.И. Книга по истории государства кочевых узбеков // Общественные науки в Узбекистане. 1966. – № 11. – С. 41–41.

10. Кармышева, Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976. – 162 с.; Эрматов, М. Этногенез и формирование узбекского народа. – Ташкент, 1968. – 124 с.; Асқаров, А.А. Некоторые аспекты изучения этногенеза и этнической истории населения Средней Азии. – Ташкент, 1986. – 47 с.; Его же. Ўзбеки как народ: как они возникли. // Фан ва турмуш, 1985, № 2–4. – С. 3–14.; Никонов В.А. Ўзбеки. // В кн.: Система личных имён у народов мира. – Москва: Наука, 1988. – С. 312.; Салимов Х. Население Средней Азии. – Ташкент, 1975. – С. 76–78.; Литвинский Б.А. Этногенез и этническая история народов Средней Азии и Казахстана в древности и средневековье (теоретические аспекты). // Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана. – Вып. I. – Москва, 1990. – С. 25 – 39.; Абдурахмонов Ғ., Шукуров Л. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент, 1973. – 204 б.

11. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 466 б.

12. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 697 б.

13. Камолитдин Шамсиддин. “Ўзбек” ва “Ўзбекистон” атамалари ёзма манбаларида. // Мерос. 2020. – № 4 (24). – Б. 62 – 65.

14. Асқаров А., Аҳмедов Б. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. // Ўзбекистон овози. 1994 йил 20-январь.

15. Abirov V. Akademik Boriboy Ahmedov tadqiqotlarida o'zbek xalqining shakllanish tarixi masalalari. // "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. – 2024. – № 3. – В. 216; Шониёзов К. Ворислик. // Ўзбекистон овози. 1994 йил 7 апрель. – Б. 3.

16. Салахетдинова М.А. К исторической топонимике Балхской области // Палестинский сборник. – Вып. 21 (84). – Ленинград: Наука, 1970. – С. 222–228; Ромодин В.А. Перевод извлечений из «Мунтахаб ат-таварих» Мухаммад Хаким-хана // МИКК. – Вып. 1. – Москва: Наука, 1973. – С. 45–62; Чехович О.Д. Самаркандские документы XV–XVI вв. (о владениях ходжа Ахрара в Средней Азии и Афганистане): факсимиле, критический текст, перевод, введение, примечания и указатели. – Москва: Наука, 1974. – 320 с.; Фролова О.Б. Топонимы Средней Азии в «Словаре стран» Йакута // Письменные памятники и проблемы истории культуры народов Востока: XV годичная научная сессия ЛО ИВ АН СССР. – Ч. I. – Москва: Наука, 1981. – С. 78–85; Акимовский О.Ф. Хронология правителей восточной части Чагатайского улуса (линия Туглук-Тимур-хана) // Восточный Туркестан и Средняя Азия / под ред. Б. А. Литвинского. – Москва: Наука, 1984. – С. 125–140; Абусейтова М.Х. Казахское ханство во второй половине XVI в. – Алма-Ата: Наука, 1985. – 103 с.

17. Аҳмедов А. Улуғбек: ҳаёти ва фаолияти. – Тошкент: Фан, 1991. – 65 б.; O'sha muallif. Улуғбек Мухаммад Тарағай. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт, 1994. – 40 б.; Файзиёв Т. Темурий маликалар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт, 1994. – 39 б.; O'sha muallif. Темурийлар шажараси. – Тошкент: Хазина, 1995. – 352 б.; Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм, 1996. – 125 б.; Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 160 б.; Бўриёв О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (Тарихий-географик лавҳалар) – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 186 б.; Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Т.: Шарқ, 2000. – 162 б.; Абиджонов Д. С. Маверауннахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60 – 90-х годов XX в.: Автореф. дисс. ...канд.ист. наук. – Ташкент, 2001. – 26 с.; Юсупова Д.Ю.

TARIX

Жизнь и труды Хондамира – Ташкент: Фан, 2006. – 423 с.; Усмонов Б. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилиқ фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVII – XX асрлар): Тарих фан. ном. дисс. ...автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2004. – 24 б.; Бўриев О. Соҳибқирон Амир Темур. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 235 б.; O'sha muallif. Россия тарихшунослигида Амир Темур сиймоси. – Тошкент: Фан, 2011. – 128 б.; Шамукарамова Ф. Мирзо Улуғбекнинг ҳаёти ва ижоди XX аср тарихшунослигида. – Тошкент: Yanginashr, 2012. – 256 б.; Файзиев Х. Шохруҳ Мирзо ва унинг ташқи сиёсати. – Тошкент: Наврўз, 2016. – 245 б.; История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. / Отв. Редакторы Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова. – Ташкент: Фан, 2017. – 568 с.; Ўлжаева Ш.М. Амир Темур давлат бошқаруви. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 148 б.; O'sha muallif. Амир Темур дипломатияси. – Тошкент: Ijod Press, 2018. – 156 б.; Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси: Илмий таъруза шаклидаги тарих фанлари доктори(DSc) диссертацияси. – Т.: ЎзР ФА ШИ, 2019. – 112 б.; Усмонов Б. Фарғона водийси Амир Темур ва темурийлар даврида – Фарғона: “Фарғона” нашриёти, 2019. – 288 б.; O'sha muallif. Амир Темур ва темурийлар даврида Фарғона водийсининг сиёсий, иқтисодий ва маданий тарихи: Тарих фан. док (DSc). диссер. ...автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТИ, 2020. – 84 б.; Бегимкулова Л. XV аср бошларида Мовароуннаҳрда ҳокимият учун кураш (кучлар нисбати ва натижалар таҳлили): Тарих фан. фал. док... диссер. – Андижон: Андижон давлат университети, 2021. – 168 б.; Ҳамидова М. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи: Т.ф.д. ... диссер. – Тошкент: ЎзМУ, 2022. – 320 б.; Маҳмудов Т. Темурийлар даври таълим тизими: Тарих фан. док (DSc)... диссер. – Самарқанд: Самарқанд давлат университети, 2022. – 152 б.; Бузруков М. Темурийлар даври Самарқанд илмий-маънавий муҳитида тасаввуф намоёндаларининг тутган ўрни: Тарих фан. фал. док. диссер. ...автореф. – Самарқанд: Самарқанд давлат университети, 2022. – 53 б.; Аҳмедов С. Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн” асаридаги темурийлар даври ижтимоий-сиёсий ва маданий жараёнлар таҳлили: Тарих фан. фал. док. диссер. ...автореф. – Тошкент: ТошДПУ, 2022. – 53 б.; Abdunosirova O. Temuriylar davri madaniy hayotida sulola vakillarining tutgan o'rnini: Tarix fan. fal. dok... disser. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2024. – 143 b.; Israilov N. XV – XVIII asrlar fransuz tarixshunosligida amir temur hayoti va davlatchilik faoliyatining tadqiq etilishi: Tarix fan. fal. dok... disser. – Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti, 2025. – 169 b.

18. Аҳмедов Б. Темур ва Қамариддин // Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 335.

19. Тўраев Ҳ. Бухоро хонлигининг XVI – XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тутган ўрни: Тарих фан. док. диссер. ... автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2007. – 44 б.; Агзамова Г. XVI–XIX асрнинг биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти: Тарих фан. док. диссер. – Тошкент, 2000. – 54 б.; Султонова Г. XVI аср иккинчи ярмида Бухоро хонлигининг Қозоқ ва Ёрқент хонликлари билан алоқалари: Тарих фан. ном. диссер. – Тошкент, 2005. – 152 б.; Zamonov A. Abdullaxon ikkinchi davrida Buxoro xonligi: ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot va xalqaro aloqalar: Tarix fan. dok. dissir. ...avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2024. – 75 b.; Мирзаев Б. Мовароуннаҳрдаги тарихий жараёнларда шайбоний ҳукмдорларнинг тутган ўрни: Тарих фан. фал. док. диссер. ...автореф. – Қарши, 2022. – 46 б.; Нишонов А. Шайбонийлар ҳукмронлиги даврида Фарғона водийсидаги сиёсий жараёнлар. Тарих фан. фал. док. диссер. ...автореф. – Фарғона, 2022. – 50 б.; Ражабов С.С. Источники по истории Бухары в исследовании академика Б.Ахмедова // Проблемы востоковедения, 2024. – № 1. – С. 39–44.; Эргашев Ж. Академик Бўрибой Аҳмедов тадқиқотларида Шайбонийлар даври манбашунослиги. // Бўрибой Аҳмедов: зийбаҳш умр. – Тошкент: Oltin meros press, 2024. – Б. 229-242.

20. Абусеитова М.Х. Казахстан и Центральная Азия в XV-XVII веках: История, политика, дипломатия. – Алма-Ата: Дайк Пресс, 2000. – 268 с.; Турсунова Г.Н. Основные этапы деятельности Амира Темура (1360 – 1405 гг.): автореф. диссер. на соискание учен. степени канд. ист. наук. – Худжанд, 2006. – 22 с.; Саидов А. Политическое и социально-экономическое положение Бухарского ханства в XVII – первой половине XVIII вв. Диссер. док. истор. наук. – Душанбе, 2007. – 50 с.; Камол Х. История вторжения кочевых племен Дашт-и Кипчака в Мавераннахр и Хорасан (XVI в.). – Душанбе, 2012. – 408 с.; Welsford T. The Toqay-Temurid Takeover of Greater Ma Wara al-Nahr, 1598–1605. – Leiden – Boston, 2013. – 388 p.; Хосейниширази С.С. Военно-политические отношения Мавераннахра и Ирана в XVI в. Диссер. канд. истор. наук. – Душанбе, 2014. – 155 с.; Саидов Ф. Историко-географические сведения Махмуда ибн Вали о Мавераннахре и Хорасане конца XVI – первой половины XVII вв. Диссер. канд. истор. наук. – Душанбе, 2022. – 27 с.; Умаров А.К., Ходжаев М.П. дипломатические отношения Тимуридского двора с династии Мин. // Вестник педагогического университета. – Душанбе: ТГПУ, 2023. – С. 229 – 235.